

## DEMOGRAFIYA FANINING VUJUDGA KELISHI. SURXON VOHASI AHOLISINING DEMOGRAFIK JARAYONLARI O'RGANILISHI TARIXSHUNOSLIGI

*Ermuratov Ergash Chorshanbi o'g'li*  
*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti*  
*2-kurs magistranti*

*Telefon: +998932046944*

*Suyunov Akmal Qo'ldoshevich*  
*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti*  
*2-kurs magistranti*

*Telefon: +998999444892*

**Annotatsiya:** Surxondaryo viloyatida 1920-1941-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan demografik jarayonlarni o'rganish, sovet davri adabiyotlari va mustaqillik davrida mavzuning o'rganilganlik darjasini aniqlash va tahlil qilish, sovet davridagi migratsion siyosatning asl mohiyatini ochib berish, aholi tarkibiga ta'sirini o'rganish.

**Kalit so'zlar:** Rossiya imperiyasi, SSSR, O'zbekiston SSR, O'rta Osiyo, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Surxondaryo, viloyat, okrug, tuman, markaz, aholi, kolhoz, savxoz, jamoalashtirish, quloqlashtirish, ko'chirish, qatag'on, demografiya, demografik jarayonlar, ichki va tashqi migratsiya, urbanizatsiya, qonun, qaror, dekret, gazeta, jurnal, arxiv, dehqonchilik, chorvachilik, paxtachilik, xo'jalik, ta'lim, tibbiyot, yer-suv islohoti..

Demografiya har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadigan fan.<sup>1</sup>

«Demografiya» atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, demos — xalq va grapho — yozaman, ya'ni «xalqni yozaman» degan ma'noni anglatadi. Demografiya fan sifatida XVII asrning ikkinchi yarmidan so'ng shakllana boshlagan. O'zbekistonda esa ushbu fan XX asrning uchinchi qismigacha asosan aholi statistikasi sifatida rivojlanib keldi. Ushbu paytgacha demografiyaga oid nazariyalar siyosiy iqtisodiyot faniga taalluqli bo'lgan. Respublikada faqatgina XX asrning 60-70 yillaridan boshlab demografiya aholining takror barpo bo'lishi, aholining joylashuvi to'g'risidagi fanlar ichida ilmiy bilimlar tizimi sifatida o'z o'rniga ega bo'la boshladi.

Demografiyaning fan sifatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

<sup>1</sup> X. Абдурахмонов, Қ. Хўжаевич: Демография: Ўқув қўлланма Т.: Ношир, 2011. 4-бет

- aholining rivojlanish nazariyasini ishlab chiqish;
- demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish) qonuniyatlarini nazariy asoslash va baholash;
- demografik siyosat va demografik prognozlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish.

Demografiyaning fan sifatida vujudga kelishi va ushbu so'zning kelib chiqishi tarixi 1662-yilga borib taqaladi. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi o'rtasida o'lim hollari nihoyatda ko'payib ketgan. Shu bois Londonda har hafta o'lim haqida byulletenlar, ya'ni maxsus ma'lumotnomalar chop etilib, aholigatarqatilgan. O'z salomatlik-larini saqlash maqsadida, mazkur ma'lumotlarni juda ko'p fuqarolar o'qigan. Angliyalik savdogar olim J.Graunt Londonda tug'ilish va o'lim haqidagi 80 yillik ma'lumotlarni o'rganib chiqqan va 1662-yili o'zining 90 betdan iborat «O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatish natijalari. Ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o'sishi va boshqa o'zgarishlari xususida London fuqarosi Jon Grauntning asari» kitobini yozgan.

Kitob juda uzun nomlangan bo'lib, o'z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarni maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birga, asarda demografik jarayonlarning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarning ta'sirini o'rganishga harakat qilingan. Tadqiqotni muallifning zamondoshlari yuksak baholashgan, lekin ular keyingi davr olimlaridan farqli o'laroq ushbu asarni aholi dinamikasi muammolarining tahlili sifatida ko'rib chiqishmagan. Demografiyaga tamal toshi qo'ygan shaxs sifatida J.Graunt XIX-XX asrlarda demografiya aholi statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab rivojlanayotgan davrida tan olingan.<sup>2</sup>

Germaniyada qiyosiy statistika asoschilari hisoblangan A.Shletser (1735-1809 yy) va A.Niman (1761-1832 yy)larning asarlari aholi statistikasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ularning aholiga doir yondoshuvlariga ko'ra, davlatning farovonligi aholi soni va ularni iqtisodiy faoliyatining doimiy tarzda o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Demografiya fanining vujudga kelishida buyuk rus olimi M.V.Lomonosov (1711-1765 yy) ning ham o'rni katta. Fanning vujudga kelishini olimning 1761- yilda yozilgan «Rus xalqini saqlash va uning ko'payishi» nomli asari bilan bog'lash ham mumkin. Ko'p hollarda merkantilistlar g'oyalarini, xususan, V.Mirabo (1715-1789-yy) g'oyalarini takrorlagan holda u mamlakat boyligining asosini hech kim yashamaydigan bepoyon hududlar emas, balki aynan aholi tashkil qiladi, deb hisoblagan. Ushbu asar o'z davri rus aholisining ko'plab muammolari: olimning yuqori darajasi, qashshoqlik, ocharchilik aholini katta qismining shafqatsiz ezilishini qamrab olgan edi. Ushbu

---

<sup>2</sup> X. Абдурахмонов, Қ. Хўжаевич: Демография: Ўқув қўлланма Т.: Ношир, 2011. 10-бет

asarning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy qiymati yuqori bo'lishiga qaramasdan Rossiyada M.V.Lomonosov mehnatini demografiya fanining vujudga kelishining asosi deb qarash imkonini bermaydi. M.V.Lomonosovning asari yozilganidan so'ng, oradan 100 yildan keyin chop qilinqanligi barchaga ma'lum.<sup>3</sup>

Respublikada demografiya fanining asoschisi demograf olim Murtazo Qoraxonovich Qoraxonov hisoblanadi. Olim mamlakat-mng XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab demografik tarixini tiklagan. Shu bilan birga, M.Qoraxonov O'zbekiston aholisining son va sifat xususiyatlarini, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarini ilk bor kompleks o'rgangan hamda demografik prognozini amalga oshirgan. O'zbekistonda demografiya fanining rivojlanishiga Is'haq Rashidovich Mullajonov, Xojiaqbar Salimovich Salimov, Ra'no Axatovna Ubaydullaeva, Ozod Bobomirzaevich Ota-Mirzaev, erkin Agzamovich Axmedov, Lyudmila Petrovna Maksakova, Mamlakat Rahmonovna Bo'rieva, Abduhakim Abduhamidovich Qayumov, Abdusami Solievich Soliev, Ravza Bayanovna Murtazina, Zulxumor Nazarovna Tojievlar ham katta hissa qo'shgan.<sup>4</sup>

Mavzuga oid ilmiy tadqiqot va adabiyotlar taxlili ularni turli davrlarga doir quyidagi guruhlariga ajratib kurib chiqishimizga imkom beradi:

1. Sovetlar xukmronligi davrida olib borilgan ilmiy tadxixotlar va chop etilgan adabiyotlar.

2. O'zbekiston mustaqilligi yillaridagi ilmiy izlanishlar va nashr etilgan adabiyotlar.

Voha aholisining XIX-XX asr boshlaridagi etnik tarkibi, adolining voha hududlari bo'ylab joylashuvi, an'anaviy mashg'ulotlari, hunarmandchilik turlari, qishloq xo'jaligi va savdo aloqalarida A. Najimov, I. M. Oranskiy, K. Shoniyozov, G. Borozna, B. X. Karmisheva, I. Xidoyatov singari olimlar birdator tadqiqotlar olib borishgan.

T. G. Tuxtametovning tadqiqotlari ham Buxoro-Rossiya munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, uning asarlarida voha tarixiga oid ma'lumotlar uchraydi. Muallif o'z tadjikotlarida Buxoroda Rossiya imperatori siyosiy agentligining ta'sis etilishi, voha xududi (Termiz)ga rus savdogarlari va fuqarolarining ko'chirib keltirilishi, voxaga sanoatning kirib kelishi, Kogon-Termiz temir yo'lining qurilishi, Amudaryo flotiliyasining ochilishi, qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar, paxta maydonlarining kengayishi, Buxoro yerlari ruslarga ijaraga berilishining salbiy va ijobiy jixatlarini) taxlil etgan.<sup>5</sup>

R. Xolikovanning «Rossiya-Buxoro: tarix chorraxasida» nomli monografiyasida Rossiya imperiyasining Buxoroga nisbata xarbiy xarakatlarining boshlanish sabablari va uning salbiy oqibatlari, Buxoro amirligining XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi

<sup>3</sup> X. Абдурахмонов, Қ. Хўжаевич: Демография: Ўқув қўлланма Т.: Ношир, 2011. 13-бет

<sup>4</sup> X. Абдурахмонов, Қ. Хўжаевич: Демография: Ўқув қўлланма Т.: Ношир, 2011. 16-бет

<sup>5</sup> F. Ochildiyev "Surxon voasi beklklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar" T: Abu matbuaot konsalt. 2008. 10-бет

ijtimoiy-siyosiy tuzumi va davlat boshkaruvi, iqtisodi ahvoli, jumladan, Boysun, Denov, Sherobod kabi shaxarlarni (bekliklarning) ijtimoiy-siyosiy va iktisodiy hayotiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Rustam Shamsutdinov "Qatag'on qurbonlari" (1937 yil 10 avgust — 5 noyabr) Ikkinchi kitobida<sup>6</sup> va "Qishloq fojeasi, jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun" nomli kitoblarida butun respublikamizda, shuningdek, Surxondaryo hududida ham olib borilgan Sobiq Ittifoqning qatag'on siyosati qurbonlari haqida ko'plab ma'lumotlarni topishimiz mumkin.<sup>7</sup>

Sovet davrida janubiy hududlarda sug'orma dehqonchilik tarixi bo'yicha yaratilgan adabiyotlarning aksariyati biryoqlamaligi bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarga xos bo'lgan umumiy xususiyat shuki, bu asarlarda ko'proq mustabid tuzumning agrar siyosatini ulug'lash, mavjud kamchilik va nuqsonlarni xaspo'shlash kabi holatlar ustun turadi. Ulardan V.Smirnov, M.N.Rojdestvenskiy, M.M.Krilov kabi mualliflarning asarlarini qayd etish mumkin.<sup>8</sup>

Yer-suv islohoti arafasida Termiz tumanida har bir dehqon xo'jaligiga o'rtacha 3-4 tanob, boy xo'jaligiga esa 10-15 tanob to'g'ri kelgan edi. Denov tumanidagi butun xo'jaliklarning 4,68 % ni yirik boy xonadonlar tashkil etib, ular ixtiyoriga barcha ekin maydonlarining 46,03 %, Sariosiyo tumanida esa butun xo'jaliklarning 3,7 %, ekin maydonlarining 70 % yirik yer egalari hisobida bo'lib, tumandagi 5 ming xo'jalikning 3 mingtasida 0,5 dan 5 tanobgacha yer to'g'ri kelar edi. Boysundagi jami ekin maydonlarining 9,6 foizi butun aholining 0,4 foizini tashkil etgan boylar qo'lida edi. Yersiz kambag'al-qashshoqlar Boysun tumanida 12,1 %, Termiz tumanida 46,8%, Sariosiyoda 41,9%, Sherobodda 51,2% ni tashkil etgan.<sup>9</sup>

Islohot natijasida Surxondaryo okrugida sug'oriladigan yerlarning 20 desyatinadan ortiqrog'i, lalmi yerlarining 45 desyatinadan ortiqrog'i musodara qilindi. 1929 yilga kelib voha bo'yicha yirik yer egalariidan 8995 gektar sug'oriladigan, 8049 gektar lalmi yerlar, 646 ot, 845 ho'kiz va ko'plab qishloq xo'jalik asbob-uskunalari tortib olindi. Bu olingan narsalar 4382 nafar kambag'al va kam yerli kambag'al dehqonlarga taqsimlandi. Okrugdagi 10,1 % dehqon xo'jaliklariga 11107 gektar sug'oriladigan, 4097 gektar lalmi yerlar va 1357 bosh ish hayvoni bo'lib berildi. Bundan tashqari, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida yomg'ir suvlari bilan

<sup>6</sup> Rustam Shamsutdinov "Qatag'on qurbonlari" (1937 yil 10 avgust — 5 noyabr) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T. - 2007

<sup>7</sup> Rustam Shamsutdinov "Qishloq fojeasi, jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun" «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T. - 2003

<sup>8</sup> Д. Т. Якубова "Ўзбекистонда пахта яккахоқимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари (1930-1990 йилларда сурхон воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз-2021. 7-бет

<sup>9</sup> Д. Т. Якубова "Ўзбекистонда пахта яккахоқимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари (1930-1990 йилларда сурхон воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз-2021. 20-бет

yaxshi sug'oriladigan lalmi yerlaridan 11 ming gektar yer musodara qilinib, uning bir qismi kambag'allarga bo'lib berildi.<sup>10</sup>

1926-yilda Toshkentda nashr etilgan "Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год" nomli kitobda O'rta Osiyoda joylashgan O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, aholisining joylashuvi, millatlar, boshqaruv tashkilotlari haqida ma'lumotlardan foydalanildi.<sup>11</sup>

1927-yilda Samarqandda nashr etilgan "Материалы Всесоюзной переписи население 1926 г. в Узбекской ССР. Вып. I. Поселенные итоги" kitobida 1926-yilda Butun Ittifoqda o'tkazilgan aholini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha qilingan ishlar haqida to'liq ma'lumot beruvchi kitob hisoblanadi. Unda O'zbekiston SSRda mavjud viloyatlar, tumanlar aholisi soni, millati haqida ko'plab ma'lumotlardan ushbu magistrlik dissertatsiyamda foydalandim.<sup>12</sup>

SSSR MIK va XKS ning 1930 yil 1 fevralidagi qaroriga asosan yerlarni ijaraga berish va yollanma mehnatdan foydalanish butunlay bekor qilindi. VKP(b) MK Siyosiy byurosining «Yalpi jamoalashtirish rayonlarida quloq xo'jaliklarini tugatish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori (1930 yil 30 yanvarъ) asosida 1930 yil 17 fevralda O'zbekiston Kompartiyasi MK tomonidan «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qilindi.

Kollektivlashtirish butun O'zbekistonda bo'lgani singari vohada hech qanday tayyorgarliksiz, shoshma-shosharlik bilan o'tkazildi. Mahalliy partiya va sovet arboblarning o'ylamay qilgan ishi katta xatoliklarga sabab bo'ldi. Kolxozlar tashkil etilgan joylarda uy-joylar, mayda chorva mollari, parranda va hokazolarni tezlik bilan umumlashtirish nazarda tutilgandi. Sovet va partiya arboblarning zo'ravonligi odamlarning sabr-kosasini to'ldirib yubordi. Respublika bo'yicha ommaviy g'alayonlar boshlandi. Butun mamlakatda juda og'ir vaziyat yuzaga keldi.<sup>13</sup>

Yoppasiga jamoalashtirish o'tkaziladigan rayonlarda quloqlarni sinf sifatida tugatish quyidagi tadbirlar bilan amalga oshirilishi ham yuqoridagi qarorda ko'rsatildi:

1. Shaxsiy tarzda soliq solinadigan ekspluatatorlik xo'jaligi belgilariga ko'ra saylov huquqidan mahrum qilingan barcha xo'jaliklar tugatiladi.

2. Ekin ekiladigan yerlar, bog'lar, xujalik binolari va turar joylar, dalalardagi daraxtlar, ishchi va mahsuldor hayvonlar, murakkab qishloq xo'jalik asbob-ashelari, aravalar, qayta ishlovchi ishlab chiqarish korxonalarini, yem-xashaklar quloqlardan

<sup>10</sup> Д. Т. Якубова "Ўзбекистонда пахта яккахокимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари (1930-1990 йилларда сурхон воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз-2021. 24- бет

<sup>11</sup> "Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год" Тошкент. 1926. 900 бет

<sup>12</sup> "Материалы Всесоюзной переписи население 1926 г. в Узбекской ССР. Вып. I. Поселенные итоги" Самарканд. 1927. 441 бет

<sup>13</sup> Д. Т. Якубова "Ўзбекистонда пахта яккахокимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари (1930-1990 йилларда сурхон воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз-2021. 28- бет

tortib olinadi va ularning barchasi kolxozlarning bo'linmas jamg'armasiga beriladi. Barcha chorikorlik bitimlari va ular yuzasidan quloq xo'jaliklariga qarz to'lash majburiyatlari, shuningdek, sudxo'rlik majburiyatlari ham bekor qilinadi.

3. Yer maydonlari va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilingan quloq xo'jaliklari yoppasiga jamoalashtirish rayonlaridan surgun qilinishlari kerak va bunda jamoalashtirishga ashaddiy, faol qarshi chiquvchilar jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak. Boshqa qolgan toifadagi quloq xo'jaliklari joylashtiriladigan rayonlarda lalmikor yerlardan yer ajratib berilishi lozim, sug'oriladigan yerlarda esa yoppasiga jamoalashtirish rayonlaridan tashqarida yomonroq sifatdagi yerlardan, buning ustiga joriy yilda paxta ekish uchun mo'ljallab o'zlashtirilmaydigan yerlardan ajratib beriladi.

4. O'zi mehnat qilib yerdan foydalanish huquqi berilib, tugatilgan quloq xo'jaliklariga yerni ijaraga berish va yollanma mehnatdan foydalanish qat'iy man etiladi.

5. Yer ajratib berilgan quloq xo'jaliklari yer organlarining ko'rsatmasiga muvofiq ekish va tovar mahsuloti topshirish bo'yicha davlat topshiriqdarini bajarish majburiyatlarini oladilar. Ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish uchun alohida hollarda mehnatli yerdan foydalanish ehtiyojlaridan chetga chiqmaydigan hajmda ishchi hayvoni va uncha murakkab bo'lmagan qishloq xo'jalik inventarini qoldirish mumkin bo'lgan.

6. Xo'jaliklari tugatiladigan rus quloqdarining ashaddiy mustamlakachi unsurlari O'rta Osiyo hududidan tashqariga surgun qilib yuboriladi.

Quloq xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarish vositalarini talon-toroj qilishning oldini olish maqsadida O'rta Osiyo respublikalarida Ittifoq hukumatining ishchi hayvonlarni yo'q qilishni taqiqlash to'g'risilagi dekretini kuchga kiritish va bu dekretni yem-xashakni tapon-toroj qilishga, daraxtlarni kesishni man etishga, qurilish va inventarlarni buzishga tadbiiq etish ham qarorda o'z aksini topdi.<sup>14</sup>

Shu davrda sovet rejimi kolxozga kirishdan bosh tortgan dehqon xo'jaliklariga qarshi ommaviy ravishda «quloq» qilish kampaniyasi boshlab yubordi. O'sha davrda quloqlar ro'yxatini tuzish tuman moliya bo'limi tomonidan olib borilgan. Tuman ijroiya qo'mitasi, tuman moliya bo'limi va kommunistik partiya vakilidan iborat «uchlik» ro'yxatiga tushgan xo'jalik oxir-oqibat quloq qilinar edi.

Kollektivlashtirish davrida Sheroboddan quloq bo'lib, surgun qilinganlar vatandoshlarimiz soni nihoyatda ko'p edi. 1930 yilda Sherobod tumanidan quloq xo'jaligi sifatida 55 katta yer egasi, 21 ruhoni, 14 amaldor, 2 savdogar, 22 sudxo'r, jami 114 xo'jalik tugatilib, 1954 gektar sug'orma yer, ish hayvonlaridan – 61ot, 125 ho'kiz, qishloq xo'jalik buyumlaridan 52 omoch, 79 sixmola, 2 ta lopatka, 5205 arava, 4970 pud somon, 1765 pud beda tortib olindi. Ko'pchilik vaziyat og'irlashuvidan tashvishga tushib, Afg'onistonga ketib qolishni afzal ko'rdi. Chunonchi, OGPU

<sup>14</sup> Rustam Shamsutdinov "Qishloq fojiasi, jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun" «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T. – 2003. 81-bet

o'zining 1930 yil birinchi choragida bergan ma'lumotida fevral oyida Surxondaryo okrugining Boysun va Pattakesar rayonlarida ommaviy ravishda chorvani sotib, Afg'onistonga ketib qolish harakatlari kuzatilayotganligidan ogohlantiradi.<sup>15</sup>

Quloqlarning asosiy qismi mohir paxtakor ekanligi hisobga olinib, ularning mehnatidan unumli foydalanish maqsadida respublikaning ichkarisida tashkil etilgan posyolka va sovxozlarga jo'natilgan. Surxondaryo viloyatidan quloq qilingan xo'jaliklarning asosiy qismi 1929 yilda O'zbekistonda tashkil etilgan birinchi sovxoz – Andijondagi Savay sovxoziga, Denovdagi Xazorbog' sovxoziga, Sho'rchi, Surxon va Qumqo'rg'ondagi quloq qilinganlar posyolkalariga, yana bir qismi Shimoliy Kavkazga jo'natilgan edi. Kollektivizatsiya davrida Denovdagi Xazorbog' sovxoziga boshqa respublikalardan quloqlashtirishdan qochgan ko'pgina odamlar boshpana topishgan edi. Lekin bu yerda ham OGPUning «sinchkov ko'zlaridan» qutulib bo'lmadi. 1933 yil 17 apreldagi 30/7 sonli protokol qarori bilan Rossiya, Ukraina va Qozog'istondagi quloqlashtirishdan qochib kelgan 13 kishi – I.S.Xijnyak-May, P.S.Shramko, S.N.Danil'chenko, M.D.Kuravlyova, I.I.Zaytsev, M.F.Davrikova, I.V.Kostin, I.T.Pochinok, I.G.Ivanov, A.A.Uchuzova, S.P.Sidorenko, A.F.Toropov, M.S.Taranetsga turli xil ayblar qo'yilib, Xazorbog' sovxozidan chiqarilgan. Ularning ishi Siyosiy uchlikka oshirilgan va o'sha kunning o'zida sudsiz, so'roqsiz repressiya qilingan. Protokol oxirida rayon nazorat inspeksiyasining (RKI – rayonnaya kontrol'naya inspeksiya) inspektori Kunovning familiyasi va imzosi qo'yilgan.<sup>16</sup>

Tadqiqotning asosiy manbalaridan biri arxiv xujjatlari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi fondlaridagi xujjatlardan tashkil topgan. Buxorodagi siyosiy agentlik fondlarida Surxon voxasi tarixiga tegishli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va savdo alokalariga doir ko'plab ma'lumotlar mavjud bulib, ulardan ham mavzuga oid zarur ma'lumotlar olindi.

Sovet davlati O'zbekiston qishloq xo'jaligida yer-suv islohoti va kollektivlashtirish amalga oshirib, butun yer-mulk va ishlab chiqarish vositalarini qo'lga oldi. Bu yo'lda o'ziga qarshi bo'lgan barcha kuchlarni yo'q qildi. Jamoalashtirish jarayonida xalqimiz ongiga sovet mafkurasini singdirish maqsadida yangi tashkil etilgan kolxozlarga «Lenin», «Stalin», «Frunze», «Andreev», «Voroshilov», «Kaganovich», «Kalinin», «Sotsializm», «Kommunizm» singari nomlar berildi. Mustabid tuzumning bu siyosati elimiz uchun ulkan musibatlar keltirdi. Sovet tuzumi davrida «Million-million begunoh insonlarning umri hazon bo'lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo'lib, yana qancha-qancha go'daklar yetim qolganini tarix, bugun va kelajak avlod hech qachon unutmaydi».<sup>17</sup>

<sup>15</sup> Д. Т. Якубова «Ўзбекистонда пахта яккахоқимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари (1930-1990 йилларда сурхон воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз-2021. 30- бет

<sup>16</sup> Д. Т. Якубова «Ўзбекистонда пахта яккахоқимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари (1930-1990 йилларда сурхон воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз-2021. 34- бет

<sup>17</sup> Д. Т. Якубова «Ўзбекистонда пахта яккахоқимлигининг ўрнатилиши ва унинг натижалари (1930-1990 йилларда сурхон воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз-2021. 35- бет

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Botirova B.N. O'zbekistonda o'tkazilgan sovetlarning aholini ko'chirish siyosati (1926-1941 yillar) Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajalini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati- Toshkent-2010- 30 bet
2. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T.: Universitet, 1997.
3. Xolmo'minov. X. E. O'zbekiston janubiy viloyatlarida tarixiy-demografik jarayonlar (sovetlar hukmronligi davrida migratsiya masalalari) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.-b 23.
4. Tursunov S., Qobilov E., Pardaev T., Murtozaev B. Surxondaryo tarix ko'zglasida. T.: Sharq, 2001.
5. Tursunov S., Qabulov E., Pardaev T., Murtozaev B. Surxondaryo tarixi. T.: 2004.
6. Tursunov S., Pardaev T va boshq. O'zbekiston tarixi va madaniyati. Surxondaryo etnografiyasi. T.: 2006.
7. Tursunov S. Mustabid tuzumning agrar siyosati. T.: Sharq, 2001.
8. Avliyoqulova D. Mustabid tuzum surguni qurbonlari // “Muloqot” jurnali. 2005 yil, 5-son.
9. Yakubova Dilaram Tadjieвна. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi va uning natijalari (1930-1990 yillarda Surxon vohasi misolida).- Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Termiz- 2021-yil. 170 bet
10. Eshmo'minov O. Z. Aholi demografiyasi va migratsiyasi (Surxondaryo viloyatiga Farg'onaliklarning ko'chirilishi misolida) Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya ishi. Termiz-2021
11. Isayev O. A. Surxon voxsidagi ijtimoiy-sh tisodiy va madaniy jarayonlar (1925-1941 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Termiz-2020.
12. X. Абдурахмонов, Қ. Хўжаевич: Демография: Ўқув қўлланма Т.: Ношир, 2011. 190bet